


GEOGRAFIYA


Telegram kanal: @Globus_MAX

1. Tog' qulashi, vulqon lavalari, muzlik morenalari va boshqalar daryo vodiysini to'sib qolishi natijasida hosil bo'lgan ko'llar nima deb ataladi?
A) O'zan ko'l
B) Qoldiq ko'l
C) Tektonik ko'l
D) To'g'on ko'l
2. Tinch, Atlantika, Hind, Shimoliy Muz okeaniga tegishli bo'lgan dengizlar qaysi javobda to'g'ri berilgan?
A) Mouson, Balear, Arafur, Bofort
B) Yava, Adriatika, Ross, Laptevlar
C) Xalmaxer, Lazarev, Seram, Irlandiya
D) Savu, Ueddell, Timor, Norvegiya
3. Navoiy viloyatining yozuvsiz xaritasida Uchquduq sanoat punkti va Navoiy sanoat tuguni qaysi raqamlar bilan tasvirlangan?



- A) 1; 3
B) 1; 2
C) 3; 4
D) 2; 3
4. Qachon Bartolomeu Diash Afrikaning janubidagi Yaxshi Umid burniga qadar Atlantika okeani sohillarini o'rgandi?
A) 1498-yil
B) 1492-yil
C) 1483-yil
D) 1487-yil
5. Shimoliy Amerikaning fasliy nam o'rmonlar zonasida qanday tuproqlar tarqalgan?
A) Ferralit
B) Qizil-qo'ng'ir
C) Sur-o'rmon
D) Kashtan
6. Sibir platformasining g'arbiy qismi qaysi erada ko'tarilgan?


- A) Arxey
B) Proterozoy
C) Mezozoy
D) Paleozoy
7. Quyi Amudaryo tabiiy geografik okrugida eng past harorat qanchani tashkil qiladi?
A) $-32 - 33^{\circ}\text{C}$
B) $-30 - 35^{\circ}\text{C}$
C) $-26 - 28^{\circ}\text{C}$
D) $-25 - 30^{\circ}\text{C}$
8. Quyidagi diagrammada to'q bo'z va qora tuproqsimon tog'-dasht tuproqlar qaysi raqamlar bilan belgilangan? O'rta Osiyo hududidagi turli tuproqlar tarkibidagi chirindining eng yuqori miqdori (%).



- A) 5; 7
B) 4; 7
C) 4; 6
D) 5; 6
9. Ugom-Chatqol davlat milliy tabiat bog'i qaysi tabiiy geografik okrugda joylashgan?
A) Farg'ona
B) Surxondaryo
C) Chirchiq-Ohangaron
D) Mirzacho'l
10. Topografik xaritalarda relyef nimalar yordamida tasvirlanadi?
A) Izobaralar
B) Gorizontallar
C) Bergshtrix
D) Izotermalar
11. O'rta Osiyoda tarqalgan tuproqlar hosil bo'lishi va unumdorlik darajasiga ko'ra necha guruhga bo'linadi?
A) 2
B) 3
C) 4
D) 5
12. 1995-yil mamlakatimizda qanday voqea sodir bo'lgan?
A) Termizda yangi zamonaviy aeroport qurildi
B) Buxoro shahrida Koreya Respublikasida ishlab chiqarilgan telefon stansiyasi ishga tushirildi
C) Qorovulbozor shahrida neftni qayta ishlovchi kombinat qurildi

D) O'zbek-Isroil qo'shma korxonasida paxta teradigan mashinaning yangi modeli yaratildi

13. Quyidagi yozuvsiz xaritada Kordilyera tog'lari, Appalachi tog'lari, Yukatan yarimoroli qaysi raqamlar bilan belgilanganligini mos ravishda toping.



- A) 5, 6, 9
- B) 4, 6, 9
- C) 5, 6, 7
- D) 1, 3, 5

14. Xaritada 1 raqami bilan qaysi tabiat zonasi tasvirlangan?



- A) Sernam ekvatorial o'rmonlar
- B) Dasht (pampa)
- C) Qattiq bargli doimiy yashil o'rmonlar va butazorlar
- D) Savanna va siyrak o'rmonlar

15. Kil kanali qaysi davlatda joylashgan?

- A) Germaniya
- B) Polsha
- C) Fransiya
- D) Buyuk Britaniya

16. Rossiya iqtisodiyotining tayanch tarmog'ini toping.

- A) Mashinasozlik
- B) Metallurgiya
- C) Yoqilg'i-energetika
- D) Oziq-ovqat

17. 2018-yil qaysi qit'ada o'rtacha umr ko'rish davri erkaklarda 75 yoshga, ayollarda 82 yoshga teng bo'ldi?

- A) Avstraliya
- B) Yevropa
- C) Amerika
- D) Osiyo

18. Jahonda qoramollarning umumiy soni qanchani tashkil etadi?

- A) 1,5 mlrd bosh
- B) 1,2 mlrd bosh
- C) 1,6 mlrd bosh
- D) 1,3 mlrd bosh

19. Afrika qit'asidagi qaysi davlatlar oltin qazib olish va eksport qilish hajmi bilan ajralib turadi?

- A) Angola, Zambiya
- B) Gana, Tanzaniya
- C) Namibiya, Botsvana
- D) Zimbabve, Malavi

20. Markaziy Osiyodagi qaysi davlat qishloq xo'jaligi sabzovotchilik, tamakichilik va ko'p tarmoqli chorvachilikka ixtisoslashgan?

- A) Qozog'iston
- B) Tojikiston
- C) O'zbekiston
- D) Qirg'iziston

21. F.Milkov inson faoliyatining turi va landshaftlarda qay darajada aks etganini hisobga olib, barcha antropogen landshaftlarni necha xil landshaft sinfiga ajratadi?

- A) 5
- B) 6
- C) 7
- D) 8

22. Atlantika okeanida harakatlanuvchi oqimlarni toping.

- A) Labrador, Somali
- B) Kanar, Bengela
- C) Musson, Kurosio
- D) Golfstrim, Kaliforniya

23. Etosha milliy bog'i qaysi materikda joylashgan?

- A) Janubiy Amerika
- B) Yevrosiyo
- C) Afrika
- D) Shimoliy Amerika

24. Oqtepa suv ombori qaysi viloyatda joylashgan?

- A) Namangan
- B) Samarqand
- C) Surxondaryo

- D) Toshkent
25. Sloveniya janubdan qaysi davlat bilan chegaradosh?
A) Bosniya va Gersegovina
B) Chernogoriya
C) Xorvatiya
D) Albaniya
26. +10°C haroratda 1 metr kub havoda qancha miqdorda suv bug'i bo'ladi?
A) 11 gr
B) 7 gr
C) 9 gr
D) 5 gr
27. Sargasso dengizining 4 metr kub suvidan qancha tuz olish mumkin?
A) 14,8 kg
B) 156 kg
C) 148 kg
D) 15,6 kg
28. Quyidagi Dunyo siyosiy xaritasidagi o'zgarishlarni sodir bo'lgan yiliga moslab chiqing. 1) Sovet Ittifoqi parchalandi; 2) Yugoslaviya Ittifoqi parchalandi; 3) Chexoslovakiya ikkiga bo'lindi; 4) Germaniya va Yaman birlashdi. a) 1990-yil; b) 1991-yil; c) 1991 – 1992-yil; d) 1993-yil.
A) 1 – a; 2 – b; 3 – c; 4 – d
B) 1 – b; 2 – c; 3 – d; 4 – a
C) 1 – b; 2 – c; 3 – a; 4 – d
D) 1 – c; 2 – b; 3 – d; 4 – a
29. AQSHning qaysi shtatlarida neft-gaz sanoatining yirik rayonlari shakllangan? 1) Florida; 2) Texas; 3) Arizona; 4) Kaliforniya; 5) Nevada; 6) Alyaska.
A) 1, 4, 6
B) 2, 3, 5
C) 1, 3, 5
D) 2, 4, 6
30. Kumtor oltin koni qaysi davlatda joylashgan?
A) Qirg'iziston
B) O'zbekiston
C) Tojikiston
D) Qozog'iston